



ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA SYUJET YARATISH MAHORATI

Davlatova Ruxsora

O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim,
Fan va Innovatsiyalar vazirligi Alfraganus universiti
Nodavlat oliy talim tashkiloti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15285842>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 23-Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 26-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

*hikoyachilik, yozuvchi, inson,
badiiy, ijodkorlar, obraz,
ruhiyat tasviri.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ruhiyat tasvirining ifodalanishi haqida ma'lumot berilgan. Yozuvchining inson ongi va dunyosining betakror mahorati e'tirof etilgan

Badiiy adabiyotda sujet tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: "Sujet - (fransuzcha: *sujet*, kelib chiqishi lotincha: *subiectum* — predmet, buyum, narsa) — badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda kechadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi. Barcha epik, dramatik va liroepik turdagi badiiy asarlarda sujet mavjud bo'ladi. Har bir adabiy turda sujet o'ziga xos harakterga ega. Ko'pgina lirik asarlarda ko'zga yaqqol tashlanib turadigan sujet tizimi yo'q. Ulardagi his-tuyg'u, o'y-kechinmalar rivoji qaysidir ma'noda lirik asar Syujetini tashkil etadi. Ayrim adabiyotshunoslar Syujetlilik umuman lirik turga xos xususiyat emas, deb hisoblaydi. Chunki, lirik asarda voqealar tizimi bo'lmasligi ham mumkin. Ayni choqda, sujet faqat voqealar tizimidan ham iborat emas."

Badiiy asarda sujet tasvirlanayotgan voqelik va asarda ishtirok etadigan qahramonlar masalasiga bevosita bog'liq. Chunki sujet asosidagi voqelikda qahramonlar harakat qiladi va eng muximi, haqiqiy badiiy asarlarda avvalo qahramonlar o'z dardidunyosi bilan namoyon bo'ladi.

Xususan Zulfiya Qurolboy qizining „O, Hayot!“ hikoyasida chol obrazi, „Kelin“da Xoldor, „Rashk“da Xosiyat obrazlari atrofida voqealar san'atkorona tarzda uyushtirilgan.

Badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, echim singari bir qator unsurlardan tarkib topadi. Masalan, „Kelin“, „Rashk“ va „Ikki manzil“ hikoyalarida Xoldor va Xosiyat o'z turmush o'rtog'i bilan, erkak va qiz bilan to'qnashuv epizodi asarning kulminatsion nuqtasi sanaladi. So'ngra voqealar echimi keladi. Badiiy asarda sujet unsurlari ba'zan turlicha hajm va turlicha tartibda kelishi mumkin. Shuningdek, ayrim asarlarda ekspozitsiya yoki echim singari sujet unsurlari bo'lmasligi ham mumkin. Bu aslo kamchilik emas, aksincha, o'quvchini badiiy tafakkurga chorlaydi, tasavvurini kengaytiradi. Ba'zi adabiyotshunoslar prolog (muqaddima) va epilog (xotima)larni ham sujet elementi sifatida ko'rsatadilar.

Sujet kompozitsiya, konflikt, fabula kabi adabiy tushunchalar bilan ham mustahkam

bog'langan.

Hikoyada aniq bir tarkibiy qismini syujet ta'minlab berdi. Umuman olganda, asardagi obrazlar bilan ro'y bergan voqyealar haqida ma'lumot beradi. Syujet muayyan vaqt mobaynida sodir bo'lgan voqyealardan tashkil topadi. Voqyealarni hikoya qilish, ochib berishning shakllangan tartib-qoidasi yo'q. Asar mohiyatini tashkil etadigan qahramonlar orasidagi o'zaro aloqa-munosabatlar tizimiga syujet deyiladi. Syujet bir qancha tarkibiy qismlardan iborat. Bular ekspozitsiya, tugun, voqyealar rivoji, kulminatsiya va echimdir. Voqyealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, obraz o'sgan muhit, shart-sharoitlar tasviri ekspozitsiyadir. Syujetdagi voqyealarning biror tugundan keyingi rivojlanish jarayoni voqyealar rivoji deyiladi. Kulminatsiya mazkur voqyealar jarayonining avj pardasi, yuqori cho'qqisidir. echim hikoya boshida qo'yilgan tugunning hal bo'lishi, voqyea xotimasi hisoblanadi. Ijodkor tanlagan real voqyealar, u yoritgan muammolar umumlashmasi badiiy asar mavzusidir. Badiiy asarga asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusi bo'ladi. Mavzu obraz va syujet orasidagi aloqani rivojlantiradi. Mavzu kitobxonni ogohlantirib, yaxshiroq yashashga yo'naltirish mumkin. Yozuvchilar asarlarida hayotiy hayajon aks etgan iboralar ishlatish tarafdoridir. Yaxshi hikoya kitobxonni avtor bilan hamfikir qilib, o'quvchini uning xulosasiga olib keladi. Uslub – yozuvchining so'z va jumalardan ijodkorona foydalanish yo'li.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida yozuvchi o'z uslubiga egaligi seziladi. Yozuvchi qalamga olgan obrazlar zamondoshlarimiz hisoblanadi.

Masalan, "Ayol" hikoyasida bugungi kunimizda paydo bo'layotgan zamondosh betob ayol ko'zga tashlanadi. Zulfiya Qurolboy qizi qahramonlar xarakterini yaratish va psixologik holatini ochishni to'la hikoyachi ixtiyoriga tashlaydi. O'zi voqyealar rivojiga aralashmay, badiiy mantiqqa zug'um qilmay, borni boricha tasvirlaydi. Bunda u asosiy e'tiborni hikoyachi nutqi qahramonlar ruhiy holatini qanchalar ifodalay olayotganiga qaratadi.

"Ayol" hikoyasida ekspozitsiya quyidagicha beriladi:

"Devorlari oppoq xona.

Deraza oynasidan to'kilayotgan oppoq nur ayolning yuzida jilva qildi, yumuq qovoqlarini qizartirdi, barmoqlaridagi uzukning olmos ko'zchalarida aks etdi. Ayol ko'zlarini ochdi. Shu'la endi uning qorachiqlarida akslandi.

"Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, — ayol ko'zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: — Seni qanchalik yaxshi ko'raman, quyosh!.."¹

Badiiy asar syujetining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, voqealar ro'y beradigan zamon va makon, personajlar to'g'risidagi muallif ma'lumotlari hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar, odatda, badiiy asar syujetining kirish qismida voqelik tuguni, rivoji, asosiy to'qnashuvlar hamda kulminatsion nuqtadan avval beriladi. Ekspozitsiyada o'quvchi asarda ishtirok etuvchi qahramonlar, ular harakat qiladigan joy, to'qnashuvchi shaxslar va hodisalar to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni oladi. Garchi ekspozitsiya badiiy asarda bosh konfliktni rivojlantirib, keyingi voqealarga turtki berishga jiddiy ko'maklashmasada, ko'pincha, asosiy voqea rivojining yo'nalishi hamda xarakterini oldindan aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu hikoyada ekspozitsiyada bemor ayol va tabiatni sirli, sehrli tasviri mujassam. Bemor ayolning og'ir xastaligi esa asarning tuguni vazifasini o'tagan:

"Keyingi hafta surunkasiga Nazokatning harorati ko'tarilib, tushib turdi...

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/zulfiya-qurolboy-qizi-1966/zulfiya-qurolboy-qizi-ayol-hikoya>

Davolovchi shifokor Shavkatni xonasiga chaqirdi.

- Nazokatning ahvoli yaxshi emas. Hozirligingizni ko'ravering. Shavkat boshini changallab qoldi.

- Og'ir bo'ling. Hali u ko'p azob tortishi mumkin, — do'xtir jimib qoldi.

Shavkat ilkis boshini ko'tardi.

- Nahotki... Shuncha qiynalgani etmaydimi?..

- Ko'p azob turibdi oldinda, — dedi do'xtir mahzunlik bilan.

Shavkat kasalxona hovlisida ancha vaqt aylanib yurib keyin palataga kirdi. Nazokat uxlab yotardi. U juda ozib ketgandi. Qovoqlari ichga botib, yonoq suyaklari turtib chiqqan, chekka tomirlari ko'm-ko'k bo'lib bo'rtib turardi.

Dunyodagi barcha kasalliklarga la'nat o'qidi Shavkat.”²

Hikoyada tuguni yaxshi bir oilaning bekasi, Nazokat o'g'ir kasal. Shifokor uning turmush o'rtog'iga hozirlik ko'rishini aytdi. Shavkat sevimli ayolini yaxshi ko'radi, oldidan bir qadam jilgisi kelmaydi, uni qizg'onadi. Nazokatni ardoqlaydi. Kitobxon adibaning quyidagi bir jumlada aks ettirgan so'zlari, ya'ni “Dunyodagi barcha kasalliklarga la'nat o'qidi Shavkat” degani Shavkatning qanday inson ekanini sezadi. A.Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi esimizga tushadi.

Bu hikoyada ming bir jon egasi – xasta ayol Masturaning kuchli xarakteri, matonati yoritilgan. U yaqin orada jon taslim qilishiga ishonsa-da, hayotga bo'lgan umidini yo'qotmaydi, shifoxonada undan hol-ahvol so'rash uchun yo'qlab kirganlar bilan bo'lgan suhbatdan Masturaning o'ziga ishonchi va irodasini ko'rish mumkin.

Har ikki hikoyada bosh obraz bemor ayollar: Nazokat va Mastura. Har ikki ayol oilali va turmush o'rtog'i sadoqatli va bardoshli Shavkat hamda Akromjon tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Hikoyaning rivojlanish bosqichida “Ayol” hikoyasi bosh qahramon Nazokat kundankun so'lib boradi:

“Nazokat tikilib turgan nigohlarni his etdi shekilli, asta ko'zini ochdi. — Yaxshimisan?..

— Tuzuk, — o'rnidan qo'zg'aldi Nazokat, — hovliga chiqib kelsammi, devdim.

Shavkat unga qo'lini uzatdi.

— Hali kuchim bor, o'zim yura olaman, — dedi Nazokat g'alati qarab.

Shavkat beixtiyor chuqur xo'rsindi.

Ular hovliga chiqishdi.

—Do'xtir sizga bir balolarni vaysagan shekilli, — dedi Nazokat tashqariga chiqqanlaridan keyin erining qovoqlari salqigan, kayfiyatsiz yuziga zimdan tikilgan. — Lekin ular yanglishyaptilar. Aft-angorimga qarang, yaxshilab qarang, men yaqin-o'rtada o'ladigan odamga o'xshaymanmi? O'zimni har qachongidan yaxshiroq his etyapman. Yashash uchun bundan ortiq yana nima bo'lishi kerak? — Ayol yurishdan to'xtadi. Havo sovugan, osmonda uvada bulutlar kezinar, quyosh xiragina nur sochar, qorning hidi kelardi. — Men oynaga boqib, qayta-qayta tikildim o'zimga, o'ladigan odamning yuzi bunaqa bo'lmaydi. Siz ham eshitganmisiz shu gapni?

² O'sha asar

— Ha, eshitganman, — dedi Shavkat shubhaga o‘rin qoldirmaydigan ohangda. — Ana, ko‘rdingizmi, — Nazokatning allaqanday ichki nurdan yuzi yorishdi. U nariroq borib kungay erda turdi, ayolning qorachiqdarida olov akslandi. — Haliyam havo bulut, — dedi u, — yorug‘lik tiniq emas. Bu havo odamning rangini ochmaydi, bo‘g‘ib qo‘yadi! Haqiqatan ham ochiq havoda uning yuzida kasallik nuqsi sezilmas, egniga to‘kilgan upa g‘ubori, havoga taralayotgan yoqimli hid uning o‘ziga oro berganini bildirib turardi.”³

Zulfiya Qurolboy qizi atayin kuz faslini tanlaydi: “Havo sovugan, osmonda uvada bulutlar kezinar, quyosh xiragina nur sochar, qorning hidi kelardi.” Nazokatning alamli taqdiri, hayoti sovib borayotgan bemor ayol ruhiyatini aks ettirgan. Xasta ayol ruhiyatida kechayotgan achchiq ayriliq osmonda ham uvada bulutlar kezinishi, quyosh esa xira nur sochishi ham xuddi bemor ayol taqdiriga o‘xshaydi, umidsiz qolgan ruhiyat kabi tizginsiz, xuddiki uzuq-uluq hayot kabi nayomon bo‘lib boradi. lekin Nazokatning umidi katta, u Shavatni ham bunga ishontishga harakat qiladi.

“Tun va tong o‘rtasida keskin kurash ketayotgan bir vaqtda borliqda teran sukunat hukm surardi. Ayol butun jismu joni quloqqa aylanib allaqanday eshitilmas tovushlarga, sirli ohanglarga g‘arq bo‘ldi, oy nurida yaltirayotgan yaproqlarning sehri titrog‘ini his etdi... Keyin chuqur nafas olib o‘pkasini toza havo bilan to‘ldirdi. Lablarini qattiq qimtib, nafas chiqarmay turdi.

Asta-sekin borliqqa kumushrang nur oqimi yoyildi. Qushlar chah-chahlab yubordi... Nazokat chuqur xo‘rsindi. Ko‘zlari yoshlandi.

Shavkat bezovtalanib, qimirlab qo‘ydi.

Nazokat o‘ringa cho‘zildi. Boshini ko‘rpa bilan burkab oldi. Zum o‘tmay adyol silkina boshladi.

Ayol yig‘lardi, unsiz yig‘lardi...”⁴

Adiba tun tasviridan oqilona foydalandi. Hikoyaning asosiy to‘qnashuvlar kechadigan syujetning bu turini ta‘sirchan gavdalantirdi.

Hikoyaning kulminatsion nuqtasida xasta ayol ruhiyatini tasvirlashda adibaning ham kuchi qolmagandek go‘yo:

“Deraza oynasiga kumushrang yog‘du yopirildi.

Keyin ufq qizarib, asta quyosh bosh ko‘tardi. Quyosh nurlari xira va kuchsiz edi, ammo u tez ko‘tarildi. Har er-har erda uni uvada pardalardek kulrang bulutlar to‘sdi, lekin quyosh yurishini to‘xtatmadi va birdan ko‘zni qamashtiradigan darajada oppoq bo‘lib porlab bepoyon osmonni yoritdi, so‘ng yurishini sekinlatib kasalxona tepasiga kelganida bor shu‘lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi, shu‘la shu lahza karavotda yotgan xushbichim va go‘zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo‘ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu‘la o‘ziga qadrdon qorachiqdarida akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmoqlarida paydo bo‘lib qolgan uzukning olmos ko‘zchalaridagina aks eta oldi. Bu kun quyosh qanchalar porloq va nurafshon bo‘lmasin, unga hech kim muhabbat izhor qilmadi, muloyim nurlarini simirmadi...

³ O‘sha asar

⁴ O‘sha asar

Baribir quyoshning bu erdan uzoqlashgisi kelmadi, u saxiylik bilan nurlarini mo'l-ko'l to'kdi, jimgina yotgan ayol vujudi ko'zni qamashtirib, yarqirayotgan oppoq nurlarga omuxta bo'lib ketdi..."⁵

Ikki hikoyada taqdirilar ikki xil yakun topadi: Nazokat vafot etadi. Mastura sog'ayib oilasi bag'riga qaytadi.

Hikoyalardagi o'xshashliklar bo'yicha tahlilimizni ayta olamizki ikkala yozuvchi o'z asarlarida umid va ishonch hayotimizda qanchalik muhim motiv ekanligini bir nechta o'xshash detallar: xasta ayol obrazi, qahramonlar xarakterini fasllar orqali, nomni esa ya'ni Nazokat (latofatlilik, noziklik, latiflik, nozik tabiatli) va Shavkat (kuchli, qudratli, irodali, zabardast, kuch-g'ayratli, shijoatli), Mastura (halol, pok, toza) va Akrom (eng saxiy, o'ta karamli, jo'mard, sahovatli) qahramonlarga mos holda tanlash orqali ko'rsatib berishgan. Bunday ifoda usuli ijodkorga o'z fikr-tuyg'ularini o'zi tuyganiday tarzda boshqalarga etkazish, ularda ham xuddi shu hislarni yaratish imkonini beradi. Bu asl adabiyot vazifasidir. Yozuvchi fikrlarni bir-biriga anglatish quroli, shu bilan birga fikrni tug'dirish va uyushtirish vositasi ham bo'lmish tildan juda unumli foydalanadi. Aynan til, qo'llangan so'zlar va ularning ishlatilish tartibi tufayli Zulfiya Qurolboy qizi asarlari qahramonlariga o'quvchilar yozuvchi kabi munosabatda bo'lishiga erisha olgan.

Zulfiya Qurolboy qizi uslubida shafqatsizlik aralash o'ta haqqoniy tasvir etakchilik qiladi. Albatta, adibning barcha ijod namunalari "Ayol" va "Ikki manzil" kabi to'la, boshdan-oyoq shu yo'sinda bitilgan emas. Ammo ularning barchasida, hech bo'lmaganda bitta qahramon yoki biror lavha real hayotning o'zi kabi shafqatsiz tusga ega.

Kitobxon xuddi muallif kabi ba'zan "Ikki manzil" dagi Qizga achinib qarasa, erkakdan nafratlanadi. "Ayol" da esa beshavqat hayotda og'ir xasta bo'lgan ayol taqdiriga befarq bo'lmaydi, ayniqsa vafodor Shavkatning insonparvarligini ko'rib, qadriyatlar yashayotganidan xursand bo'ladi.

Mazkur bobda o'rganilgan muammo yuzasidan biz quyidagicha ilmiy-nazariy xulosalarga keldik:

- Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida qahramon ruhiyati tasvirida dialog va monologning ahamiyati katta bo'lib, "Rashk" va "Kelin" hikoyalarida monologik nutq tipidan unumli foydalangan;
- Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarini o'qir ekanmiz, undagi qahramonlarning hayoti chigal va iztiroblarga to'la tasvirlangan. Misol uchun yozuvchi qalamiga mansub "Rashk" va "Kelin" hikoyalari mavzu jihatdan va undagi ayol obrazlarining taqdiri o'xshashligi jihatdan farq qilmasa ham, lekin o'ziga xos individual xususiyatlarga va ruhiy iztiroblarga egaligi bilan bir-biridan ajralib turishi va ayollarning fojiga to'la hayoti ochib berilgan;
- Yozuchi dialog nutq tipidan ham unumli foydalanib "Ikki manzil" nomli hikoya yaratib, o'zining mukammal pozitsiyasida qolgan iboli, hayoli o'zbek qizi obrazini yaratgan;
- Yozuvchi-shoirlarimizning adabiy jarayonga faol aralashuvi, adabiyotning asosiy vazifasi va yangilanish jarayonlari haqidagi fikr-mulohazalari, kuzatuvlari o'zbek adabiyoti

⁵ O'sha asar

masalalarini jahon adabiyoti kontekstida talqin va tadqiq etishga, ijodkor “men”i va shaxsiyati haqida yangi-yangi qarashlarni dadil ayta boshlashlariga zamin yaratdi.

- Zamonaviy o‘zbek adabiyotida Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida tabiiy tarzda ijodiy parallellizmning bir qirrasini sifatida qabul qilinishi va o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Ijodkor ziyolilar bilan uchrashuv, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi saylovoldi ma‘ruzasi. //XXI asr. 22-yanvar, 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2018.
6. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. Abdurahmonova M. Abdulla Qodiriyning psixologik tasvir mahorati. – T., 1977.
8. Belinskiy V. G. Adabiy orzular. – T.: 1977
9. Bo‘ronov Sh. Inson va hayot voqeligini metaforik uyg‘unlashtirishda badiiy psixologizmning o‘rni. – T.: 2024.
10. Dostmuhamedov X. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi. – T., 2000.
11. Hamraqulova X. “Sarob” romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o‘rganilishi. // Til va adabiyot ta‘limi jurnali, 2002. № 4.
12. Авазова О. Психологик таҳлил қирралари // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1981 йил, № 1. 61-62-бетлар.
13. Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир// “Шарқ юлдузи”, 1947 йил, № 2-3. 115-137-бетлар.
14. Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида). – Т.: Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 120.
15. Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. – Т.: Баёз нашриёти, 2014.– Б. 118.
16. Владимирова Н. Ўзбек ҳикояларининг ғоя ва образлари. –Т.: Фан, 1969. –Б. 136.
17. Дониёрова Ш. Давр ва қаҳрамон муаммосига доир// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1999. №3.46-48-бетлар.
18. Жаббор Эшонкул. Руҳий таҳлил методи хусусида. // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1997. №2.42-47-бетлар.
19. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Т.: Маънавият, 2010. 127-бет.
20. Имомова Г. Руҳий изтироблар. –Т.: Ёзувчи, 1992. 22-б.